

*O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
Kengashining 2023-yil 1-fevraldagi
7-sonli yig‘ilish qarori bilan
tasdiqlangan.*

“Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi maxsus stipendiya” to‘g‘risidagi

NIZOM

I-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Xotin- qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasining 2022-yil 8-noyabrdagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tengligiga erishish strategiyasi va uni 2021-2022-yillarda amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi ijrosi to‘g‘risida”gi 128-son qarori 5-bandi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining “Oliy ta‘lim muassasalarida ilm-fan sohasida muvaffaqiyatga erishgan mashhur ayollari nomi bilan ataluvchi stipendiyani joriy etish to‘g‘risida”gi 2022-yil 22-dekabrdagi 422-son buyrug‘iga muvofiq ishlab chiqilgan hamda ushbu nizom O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi talabalariga Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi maxsus stipendiya (keyingi o‘rinlarda – “Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi stipendiya”) tayinlash va to‘lash tartibini belgilaydi.

2. “Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi stipendiya” xoreografiya san‘ati sohasida alohida faollik ko‘rsatgan, a‘lo va yaxshi baholi ko‘rsatgichlarga ega bo‘lgan, namunali hulqi, ilmiy-tadqiqot ishlaridagi faolligi, respublika va xalqaro ko‘rik-tanlovlarda faxrli o‘rin sohibi, tashabbuskor, faol iqtidorli talaba-qizlarni rag‘batlantirish maqsadida beriladi.

3. “Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi stipendiya” har o‘quv yili akademiyaning bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklarida tahsil olayotgan to‘rt nafar talaba-qizlarga ajratiladi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, nomli davlat stipendiyalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti granti hamda akademiya faoliyati bilan bog‘liq

tarzda e'lon qilingan stipendiyalarni qo'lga kiritgan talaba-qizlar ushbu stipendiya uchun o'tkaziladigan tanlovda ishtirok eta olmaydi.

5. Bir talaba faqat bir marotaba ushbu stipendiyani qo'lga kiritishi mumkin. Ushbu stipendiyani qo'lga kiritgan talaba, ikkinchi marotaba ushbu stipendiya uchun o'tkaziladigan tanlovda ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

II-bob. "Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi stipendiya"ni tayinlash tartibi

6. Stipendiya quyidagi talablarga javob beradigan akademiyaning kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan bakalavriatning 2-4-bosqich, magistraturaning 2-bosqich talaba-qizlariga beriladi:

- Mukarrama Turg'unboyeva hayoti, ijodi va yaratgan asarlarini nazariy yoki amaliy jihatdan bilishi;

- o'quv yili davomida a'lo va yaxshi (25% gacha yaxshi) baholarga o'qish;

- xoreografiya va san'atshunoslik sohasida ilmiy-ijodiy izlanishlar olib borish;

- talabgorlar bilimi va ilmiy-ijodiy darajasini sinovdan o'tkazish maqsadida, o'quv yili yakunlangandan so'ng, 10 kun muddat ichida quyidagi hujjatlarni ko'rib chiqish uchun tanlov komissiyasiga taqdim etishlari lozim:

- pasport (nusxasi);

- rasm 3/4 - 2ta, 10/15 - 2ta

- sinov daftarchasidan yoki HEYMS qayd varaqasidan tasdiqlangan ko'chirma (o'zlashtirish ko'rsatkichi);

- dekan va mutaxassislik kafedrasini mudirining tavsiyanomasi;

- iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi tomonidan tavsifiy-tavsiyanoma;

- ilmiy (ijodiy) ishlar;

- ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda va boshqa targ'iboti bo'yicha materiallar.

Barcha hujjatlar qog'oz va elektron shaklda taqdim etiladi.

Hujjatlar alohida jildga (papkaga) joylangan holda topshiriladi. Hujjat muqovasida talabgorning familiyasi, ismi va otasining ismi, fakulteti, ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi), kursi, guruhi ko'rsatiladi.

7. Tanlov komissiyasi quyidagi mezonlardan kelib chiqib, nomzodlarni baholaydi:

- 25 ballgacha nomzodlar bilan suhbat;
- 25 ballgacha a'lo va yaxshi (3 tagacha yaxshi baho) baholarga o'qishi (har bir yaxshi baho uchun -1 ball);
- 50 ballgacha ilmiy-ijodiy ishlari, shuningdek, konferensiya va tanlovlarda ishtiroki (har bir ish 5 balldan baholanadi);
- tanlov komissiyasi tomonidan ketma-ketlik tartibida eng yuqori ball to'plagan to'rt nafar talaba-qizlarga stipendiya tayinlash uchun tavsiya beriladi;
- tanlov komissiyasi yakuniy natijalarni ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun akademiya Kengashiga taqdim etadi.

III-bob. "Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi stipendiya" sini tayinlash

8. Tanlov komissiyasining tavsiyasi asosida yangi o'quv yili boshlanishidan avval (avgust-sentabr oyida) akademiya Kengashining qarori asosida rektor buyrug'i bilan stipendiya tayinlanadi.

9. Stipendiyaga sazovor bo'lgan talaba qizlarga "Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi maxsus stipendiya sohibi" guvohnomasi beriladi.

10. "Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi stipendiya" o'quv yili uchun belgilangan miqdorga qat'iy rioya qilingan holda, akademiyaning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan to'lanadi.

11. Stipendiya miqdori mehnatga haq to'lashni bazaviy miqdorining 2 barobari miqdorida har oy beriladi.

IV-bob. Yakunlovchi qoidalar

12. Talaba o'qishini boshqa oliy ta'lim muassasasiga ko'chirganda yoki akademik ta'til olganda stipendiya berish to'xtatiladi.

13. O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori tomonidan tasdiqlangan “O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining odob-axloq kodeksi” talablariga rioya etmagan talabalar o‘quv yili mobaynida mutaxassislik kafedra mudiri va fakultet dekani tavsiyasiga binoan, akademiya rektori buyrug‘i asosida stipendiyadan mahrum qilinishi mumkin.

14. Mazkur Nizomga akademiya Kengashi qarori bilan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

15. O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi talaba-qizlariga “Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi stipendiya”ni tayinlash bo‘yicha ariza va shikoyatlar qonunchilikda belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.